

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD. 03/2025.27.12.Ped.08.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI**  
**BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**KURBONOVA ZILOLA ISMOIL QIZI**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA 5-7 YOSHLI  
BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Kurbonova Zilola Ismoil qizi**

Мaktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga  
tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish.....3

**Kurbanova Zilola Ismoilovna**

Совершенство механизмов подготовки детей 5-7 лет к школьному  
обучению в дошкольных образовательных организациях.....23

**Khurbonova Zilola Ismoilovna**

Improvement of mechanisms for preparing children 5-7 years old for school  
education in preschool educational organizations .....43

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....52

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD. 03/2025.27.12.Ped.08.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI**  
**BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**KURBONOVA ZILOLA ISMOIL QIZI**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA 5-7 YOSHLI  
BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PHD/Ped.5352 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Jumayeva Mohigul Abduvohidovna**  
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Turdiyeva Mohira Jo'raqulovna**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Urganch davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil "13" mart soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-27-07; E-xat: [bsu\\_info@edu.uz](mailto:bsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Q/834 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Buxoro viloyati Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-27-07; E-xat: [bsu\\_info@edu.uz](mailto:bsu_info@edu.uz))

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "3" mart kuni tarqatildi.

(2026-yil "3" mart dagi 1 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.O. Qahhorov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., professor

**F.X. Xazratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
p.f.f.d., (PhD) dotsent

**B.R. Adizov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy  
seminar raisi, p.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda maktabgacha ta'lim nafaqat bolalarni maktab ta'limiga, balki mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim bo'g'ini sifatida e'tirof etilib, bu borada Xalqaro ta'lim instituti<sup>1</sup>, YUNESKO ta'lim instituti, European Integration<sup>2</sup> kabi nufuzli tadqiqot markazlarida muhim ilmiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, bolaning faqat intellektual kognitiv rivojlanishiga emas, balki uning ijtimoiy-hissiy, jismoniy, nutqiy va ijodiy rivojlanishiga ham birdek e'tibor qaratiladi. Maktabga tayyorlik faqat o'qish, yozishni bilish emas, balki jamiyatda moslashish, o'zini boshqarish, o'rtoqlari bilan muloqot qila olish kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga olishi, "o'yin orqali o'rganish"<sup>3</sup> tamoyiliga asoslanish, orqali dunyo haqida bilim olishlariga erishish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo miqyosida maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmunining integrativ modellarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, pedagog-tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, tarbiyalanuvchilarning aqliy, estetik va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid tadqiqotlar alohida ahamiyatga molik. Shu jihatdan, ta'lim tizimining asosiy tamoyili - har bir bolani uning individual ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirish, maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy ko'nikmalari, o'zini nazorat qilish va mustaqilligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilish<sup>4</sup>, bolalarni "o'yin" va "tadqiqot" orqali o'rganishga yo'naltirish<sup>5</sup>, o'yinni asosiy ta'lim vositasi sifatida ko'rish orqali bolalar o'yin orqali ijtimoiy munosabatlarni, muammolarni hal qilishni o'rgatish<sup>6</sup>, bolalarning rivojlanishini kuzatish va baholash uchun maxsus yo'riqnomalarni tayyorlash<sup>7</sup> orqali "Parent-Teacher Conferences" - ota-ona-o'qituvchi uchrashuvlarini tizimli o'tkazish masalalarini o'rganish borasidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim jarayoni mazmunini tubdan isloh qilish, "...bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'limga qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagoglarning malaka darajasini yuksaltirish"<sup>8</sup> kabi muhim vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, xalqaro andozalar integratsiyasi talablari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv tarbiya jarayonining metodik mazmundorligini boyitish, ota-onalarning faol

---

<sup>1</sup> National Association for the Education of Young Children (NAEYC). *Developmentally Appropriate Practice in Early Childhood Programs Serving Children from Birth through Age 8*. — Washington, DC: NAEYC, 2020.

<sup>2</sup> Early Childhood Studies Association – Austria (ECSA-Austria). *Research and Professional Development in Early Childhood Education*. — Vienna, Austria.

<sup>3</sup> Government of Canada. *Early Learning and Child Care in Canada*. — Ottawa: Government of Canada, 2021.K

<sup>4</sup> *Early Childhood Education and Care in Finland*. — Nordic Council of Ministers, 2018.

<sup>5</sup> Department for Education (DfE). *Statutory Framework for the Early Years Foundation Stage*. — London, 2023.

<sup>6</sup> Australian Government Department of Education. *Belonging, Being and Becoming: The Early Years Learning Framework for Australia (Version 2.0)*. — Canberra, 2022.

<sup>7</sup> Australian Children's Education and Care Quality Authority (ACEQA). *Guide to the National Quality Standard*. Sydney, 2020.

<sup>8</sup> 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2022.

hamkorligiga asoslanish, davlat talablari, dasturlar, interaktiv, ijodiy, muammoli topshiriqlarga boy amaliy mashg'ulot va treninglarni joriy etish orqali tarbiyachilarning kasbiy mahoratini uzluksiz oshirib borish muhim masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida" O'RQ-901-son, 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" PQ-3261-son Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoni, 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son, 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-231-son Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 391-son, 2024-yil 18-dekabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 848-son, 2025-yil 12-fevraldagi "2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 83-son, 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-son Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi<sup>9</sup> hamda sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish mavzusida D.Abduraximova, T.Xurvaliyeva, N.Abdullayeva, G.Ibragimova, G.Berdaliyeva, M.Berdiyeva, D.Salimova, M.Rasulxo'jayeva, S.Raximova, N.Rejametova, G.Rizayeva, X.Rizayeva, G.Nazirova, M.Isxakova, O.Maxmudova, Yu.Maxmutazimova, D.Mo'minova, N.Mo'minova, G.Najmiddinova, N.Ergasheva, M.Xushnazarova, N.Shaizakova, G.Qurbonova, Z.Ashurovalar ilmiy tadqiqot olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan S.Novoselova, V.Petrovskiy, V.Poddyakov, V.Yasvin va boshqa olimlarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash muammolarini o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilgan va tahlil qilingan.

---

<sup>9</sup> "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

Xorijiy davlatlar olimlari D.Adams (Angliya) M.Montessori (Italiya), O.Dekroli (Belgiya), Dj.Dyui (Fransiya), Elen Key (Shvetsiya), Selestin Frenet (Fransiya) va boshqa olimlarning ishlarida maktabgacha ta'lim sohasidagi muammolar o'rganilgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi ta'lim transformatsiyasi muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga zarurat mavjud.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual – metodologik asoslari" mavzusi (2023-2025-y.y.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik – psixologik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmini pedagogik, psixologik va didaktik tamoyillarga ustuvorlik berish orqali ilmiy asoslash;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir tarbiyalanuvchining rivojlanganlik darajasini sohalarni diagnostik tahlil qilishga yo'naltirilgan mezonlar asosida takomillashtirish;

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mazmunini zamonaviy platformadan foydalanish asosida takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlaridan jami 18 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 632 nafar tarbiyalanuvchilari ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, tizimli tahlil, pedagogik diagnostika, so'rovnomma, intervyu, ilmiy prognoz, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik va ma'lumotlarni qayta ishlash, interpretatsiya hamda korreksion tahlil kabi nazariy, empirik va kvalimetrik usuldan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik – psixologik imkoniyatlari tarbiyalanuvchilarning jismoniy (harakat koordinatsiyasi, mustaqillik, fiziologik o'sish), aqliy (tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur, san'atga qiziqish), ijtimoiy-emotsional (muloqot, emotsiyalar, odoq-axloq), bilish qobiliyatlari (sanash va hisoblash, harflar va tovushlarni bilish, ranglarni va shakllarni farqlash) kabi xususiyatlari baholovchi shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilash asosida aniqlashtirilgan.

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmi tarbiyachi va tengdoshlar bilan hamkorlik, muloqot va o'rganishda bolaning "yaqin rivojlanish zonasini"ni aniqlashga yo'naltirilgan (kognitiv, ijtimoiy-emotsional va jismoniy rivojlanishi, o'qishga bo'lgan tayyorgarligini oshirishi va maktab muhitiga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam berish) o'quv-tarbiya jarayonining mazmuni pedagogik, psixologik va didaktik tamoyillarga ustuvorlik berish orqali ilmiy asoslangan.

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir tarbiyalanuvchining rivojlanganlik darajasi fizik (bo'y o'sishi, jismoniy kuch va chidamlilik), kognitiv (aqliy qobiliyatlar, bilim olish, muammo yechish, tafakkur qilish qobiliyati), ijtimoiy-emotsional (munosabatlarni qurish, muloqot qilish, emotsiyalarni boshqarish, o'z-o'zini anglash) kabi sohalarini diagnostik tahlil qilishga yo'naltirilgan mezonlar asosida takomillashtirilgan.

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mazmuni har bir tarbiyalanuvchining (genetik omillar, muhit ta'siri, tarbiya, salomatlik) individual rivojlanish sur'ati va qobiliyatlarini hisobga olgan holda "Mening ehtiyojlarim, emotsiyalarim, niyatlarim" usulidan foydalanishga yo'naltirilgan refleksiv yondashuvli platformadan foydalanishga oid metodik tavsiyalar asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Bolalar taraqqiyoti sohasida akademik tayyorgarlikning yaxshilanishi asosida bolalar o'qish, yozish va hisoblash ko'nikmalarini yaxshiroq egallashlarini ta'minlovchi metodik ta'minot yaratildi. Ularning lug'at boyligi oshiruvchi, grammatik tuzilmalarni tushunishlari va qo'llashlari yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar takomillashtirildi. 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashda kognitiv rivojlanishning tezlashuvi, ijtimoiy-emotsional rivojlanishning mustahkamlanishi, mustaqillikning ortishi, o'qishga bo'lgan qiziqishning ortishi ta'minlanadi.

60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" nomli darslik hamda "Maktabga ilk qadam" nomli metodik qo'llanma asosida ta'lim muassasalari faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, tarbiyachilarning mahoratini oshirish va ularga zamonaviy o'qitish usullarini qo'llashga imkoniyat yaratildi. Zamonaviy o'quv materiallari va texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini oshirdi. Maktabga tayyorgarlik jarayoniga ota-onalarning jalb qilinishi bolalarning muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlaydi. Maktabdagi muvaffaqiyatning oshishi, maktabga moslashishning osonlashishi, tayyorlov jarayonlari bolalarning imkoniyatlarini to'liq ochib berishga yordam beradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga oid uslub va nazariy materiallarning rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalari va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati natijasida 5-7 yoshli bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini

ta'minlashning yangi yoki takomillashtirilgan mexanizmlari, usullari va vositalari aniqlanadi. Bu maktabgacha pedagogika va bolalar psixologiyasi sohasidagi mavjud nazariyalarni boyitadi. Ayniqsa, bolalarning yosh xususiyatlari, ularning rivojlanish bosqichlari va maktabga tayyorgarlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklarni ochib beradi. Xorijiy tajribalarni o'rganish va ularning mahalliy sharoitga mosligini aniqlash, umumiy ta'lim nazariyasiga, xususan, ta'lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilishga hissa qo'shadi. Tadqiqot jarayonida bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashga oid aniq diagnostik mezonlar, testlar, so'rovnomalar, kuzatuv jadvallari ishlab chiqilishi mumkin. Bu vositalar ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, kelajakdagi tadqiqotlarda ham qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida takomillashtirilgan mexanizmlar maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari va rahbarlari uchun maktabga tayyorlov jarayonini yanada samarali tashkil etish bo'yicha aniq ko'rsatmalar, usullar va tavsiyalar beradi. Tadqiqot xulosalari asosida maktabgacha ta'lim davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish bolalarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy-hissiy, jismoniy, nutqiy va ijodiy rivojlanishi, bolalarning maktabdagi o'quv jarayoniga yanada faol va muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlovchi zamonaviy va ilmiy asoslangan metodik qo'llanmalar yaratishga imkoniyat yaratadi. Tadqiqotda ilgari surilgan tavsiyalar maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik – psixologik imkoniyatlari tarbiyalanuvchilarning jismoniy (harakat koordinatsiyasi, mustaqillik, fiziologik o'sish), aqliy (tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur, san'atga qiziqish), ijtimoiy-emotsional (muloqot, emotsiyalar, odob-axloq), bilish qobiliyatlari (sanash va hisoblash, harflar va tovushlarni bilish, ranglarni va shakllarni farqlash) kabi xususiyatlari baholovchi shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilash asosida aniqlashtirilgan xulosa va takliflardan “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi” darsligi mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 02/01-01-335-son ma'lumotnomasiga muvofiq). Natijada, 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mazmunini muayyan darajada boyitilishiga erishilgan;

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmi tarbiyachi va tengdoshlar bilan hamkorlik, muloqot va o'rganishda bolaning “yaqin rivojlanish zonasini”ni aniqlashga yo'naltirilgan (kognitiv, ijtimoiy-emotsional va jismoniy rivojlanishi, o'qishga bo'lgan tayyorgarligini oshirishi va maktab muhitiga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam berish) o'quv-tarbiya jarayonining mazmuni pedagogik, psixologik va didaktik tamoyillarga ustuvorlik berish orqali ilmiy asoslangan takliflar dan PZ-2014-0906083753 – “Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifat va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihani amalga oshirishda foydalanilgan. (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2025-yil 18-iyundagi 01/09-09/307-son

ma'lumotnomasi) Natijada, 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha tavsiya etilgan loyihalar orqali tarbiyachilarning kasbiy mahoratini muayyan oshirishga erishilgan.

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir tarbiyalanuvchining rivojlanganlik darajasi fizik (bo'y o'sishi, jismoniy kuch va chidamlilik), kognitiv (aqliy qobiliyatlar, bilim olish, muammo yechish, tafakkur qilish qobiliyati), ijtimoiy-emotsional (munosabatlarni qurish, muloqot qilish, emotsiyalarni boshqarish, o'z-o'zini anglash) kabi sohalarini diagnostik tahlil qilishga yo'naltirilgan mezonlar asosida takomillashtirilgan tavsiyalardan 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" darsligi mazmunini nazariy va amaliy jihatdan boyitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 02/01-01-335-son ma'lumotnomasiga muvofiq). Natijada, 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash mexanizmlarini yanada samarali tashkil etish, ta'lim va tarbiya jarayonida innovatsion hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, tarbiyachilarning media va kasbiy kompetentligini oshirishga erishilgan;

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mazmuni har bir tarbiyalanuvchining (genetik omillar, muhit ta'siri, tarbiya, salomatlik) individual rivojlanish sur'ati va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmuni va uslubini avtomatik moslashtirishga yo'naltirilgan refleksiv yondashuvli platformadan foydalanishga oid ishlab chiqilgan takliflardan PZ-202005236-raqamli "Oila psixologiyasi fanidan multimediyaga mahsulotini yaratish" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasida belgilangan asosiy vazifalarni bajarishda samarali foydalanilgan. (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 26-iyundagi 01-11-05/4075-son ma'lumotnomasi) Natijada, takomillashtirilgan mexanizmlarning samaradorligini empirik o'lchash usullari (masalan, eksperimental va nazorat guruhlari natijalarini taqqoslash) tadqiqot metodologiyasini rivojlantirishda muayyan darajada xizmat qilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi:** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 24 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta darslik, 2 ta monografiya, 1 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining PhD doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta jumladan, 7 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 146 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, shuningdek,

obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“5-7 yoshli bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida global ta‘lim muhitida 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashning dolzarbligi va ahamiyati, 5-7 yoshli bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashda xorijiy tajribalar tahlili, bolalarni maktabga tayyorlashning psixologik-pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Zamonaviy ta‘lim muhitida 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham o‘zining dolzarbligini va yuqori ahamiyatini tobora orttirib bormoqda. Zamonaviy tadqiqotlar esa maktabga tayyorgarlikni kognitiv, ijtimoiy-emotsional, nutqiy, ijroiyy va motivatsion komponentlar integratsiyasi sifatida talqin qiladi. Xususan, UNESCO<sup>10</sup> va UNICEF<sup>11</sup> hisobotlarida erta yoshdagi rivojlanish inson kapitalini shakllantirishning eng muhim bosqichi sifatida e‘tirof etiladi.

Neyropsixologik tadqiqotlarda ham 5–7 yosh davrida miya plastiklik darajasi yuqori bo‘lishini, kognitiv va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar intensiv shakllanishini ko‘rsatadi. Shu sababli, maktabgacha ta‘lim investitsiyasi iqtisodiy nuqtai nazardan ham yuqori ijtimoiy qaytim beruvchi strategik soha sifatida baholanadi. Innovatsion yondashuvda erta yoshdagi ta‘lim faqat pedagogik jarayon emas, balki: inson kapitalini rivojlantirish mexanizmi, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish instrumenti, barqaror iqtisodiy o‘sish omili, sog‘lom va raqobatbardosh jamiyatni shakllantirish platformasi sifatida talqin qilinadi. Shu bois ko‘plab davlatlarda maktabgacha ta‘lim va maktabga tayyorgarlik tizimini rivojlantirish milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishiga aylangan bo‘lib, u ta‘lim siyosati, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilmoqda. Bu davlatning kelajak avlodga investitsiya qilayotganining belgisi bo‘lib, iqtisodiy rivojlanish uchun ham muhimdir. Ushbu dolzarblik quyidagilar bilan belgilanadi:

- kelajak avlodning rivojlangan va barkamol bo‘lishini ta‘minlash;
- raqamli va global dunyoning talablariga javob bera oladigan shaxslarni shakllantirish;
- ta‘limda teng imkoniyatlar yaratish va ijtimoiy adolatni mustahkamlash;
- umumiy ta‘lim tizimining sifatini oshirish;
- milliy va xalqaro taraqqiyotga hissa qo‘shish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalarni o‘rganish va tahlil qilish bizga zamonaviy ta‘lim tizimini takomillashtirish, shuningdek, o‘zimizning milliy tizimimizni yanada samaraliroq qilish uchun muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatib beradi.

---

<sup>10</sup> UNESCO – Early Childhood Care and Education Reports

<sup>11</sup> UNICEF – Early Childhood Development Framework

Quyida ba'zi yetakchi mamlakatlarning tajribalari tahlili keltirildi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishda xorijiy tajribalar tahlili**

	<b>Asosiy tamoyil</b>	<b>Xususiyatlari</b>	<b>O'rganiladigan jihatlar</b>
<b>Finlandiya</b>	Finlandiya ta'lim tizimi bolaning o'yin orqali o'rganishi, ijodkorlik va har tomonlama rivojlanishiga urg'u beradi. Maktabga tayyorlash rasmiy "tayyorgarlik sinflari" shaklida emas, balki "maktabga tayyorgarlik yili" (optional) shaklida amalga oshiriladi.	O'yin asosida ta'lim Kam miqdordagi rasmiy mashg'ulotlar: o'qituvchilar ning yuqori malakasi, tenglik va inkluzivlik	O'yinning ta'limdagi o'rni, rasmiy mashg'ulotlarni kamaytirish, o'qituvchilar malakasini oshirish, tenglik tamoyiliga urg'u berish
<b>Singapur</b>	Singapur tizimi aniq va tizimli yondashuvga ega. Maktabga tayyorgarlikda nafaqat ijtimoiy-hissiy, balki aqliy rivojlanishga ham jiddiy e'tibor qaratiladi.	"Kichik maktab" tizimi. "Kuzatuv va o'yin" "Uslubiy ta'lim" kombinatsiya si. STEMga kirish: Qat'iy baholash tizimi	O'yin va tizimli mashg'ulotlarning muvozanati, ingliz tilini va STEM yo'nalishlarini erta yoshdan boshlash, monitoring va baholash tizimi.
<b>AQSh</b>	AQShda maktabga tayyorgarlik jarayoni shtatdan shtatga, hatto tumanidan tumaniga farq qilishi mumkin. Ko'pincha "Kindergarten" (5-6 yosh) maktabning birinchi bosqichi hisoblanadi	"Pre-Kindergarten" Pre-K dasturi "Common Core State Standards" kabi standartlar muvaffaqiyatga erishishga urg'u	Maktabgacha davlat dasturlarini rivojlantirish, umumiy ta'lim standartlarini joriy etish, o'qish va yozishga tayyorgarlik ko'nikmalariga e'tibor qaratish
<b>Buyuk Britaniya</b>	Buyuk Britaniyada "Early Years Foundation Stage" (EYFS) frameworki 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun standartlarni belgilaydi. 5 yoshli bolalar "Reception year"ga kirishadi, bu maktabga kirishning birinchi bosqichi hisoblanadi	6 ta soha: til, jismoniy, shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanish, dunyo ni tushunish, ijodiy rivojlanish, o'qish, yozish, hisoblash	Rivojlanishning aniq belgilangan sohalari, o'yin va tizimli mashg'ulotlarning integratsiyasi, doimiy monitoring

Xorijiy tajribalarni o'rganish va tahlil qilish bizga 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning yanada samarali va zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim yo'nalishlarni ko'rsatib beradi.

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashning psixologik-pedagogik jihatlarini ilmiy asoslashda taniqli olimlarning nazariyalari va konsepsiyalaridan foydalanildi:

Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning psixik rivojlanishi avvalo ijtimoiy muhit va madaniy tajriba bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Olim ta'kidlaganidek, barcha yuqori aqliy funksiyalar - xotira, diqqat va tafakkur dastlab ijtimoiy muloqot jarayonida, ya'ni kattalar yoki tengdoshlar bilan hamkorlik faoliyati davomida vujudga keladi. Keyin esa ushbu jarayonlar bolaning ichki psixik tizimiga ko'chib, individual aqliy funksiyaga

aylanadi. Aynan shu jarayonni tushuntirish uchun u “yaqin rivojlanish zonasi”<sup>12</sup> tushunchasini kiritadi, ya’ni bola mustaqil bajara olmaydigan, biroq kattalar yoki malakali hamkor ko‘magida uddalay oladigan vazifalar doirasi uning rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi.

Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida bolaning aqliy rivojlanishini bosqichma-bosqich o‘zgarish jarayoni sifatida ko‘rilgan. 5-7 yoshli bolalar asosan “konkret operatsiyalar”<sup>13</sup> bosqichida bo‘ladi. Bu bosqichda bolalar o‘zlarining voqea-hodisalar haqidagi tushunchalarini tizimlashtira boshlaydilar, ammo abstrakt fikrlashdan ko‘ra konkret obyektlar va hodisalar bilan ishlashga moyil bo‘ladilar. Ular miqdorning saqlanib qolishi (conservation) tushunchasini (masalan, idish shakli o‘zgarsa ham, suv miqdori o‘zgarmasligini tushunish) egallay boshlaydilar.

Erik Eriksonning psixo-ijtimoiy rivojlanish nazariyasida inson hayoti 8 bosqichga bo‘lingan. 5-7 yoshli bolalar “Mehnatsevarlik va ishonchsizlik” bosqichida bo‘ladi. Bu bosqichda bolalar o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishish orqali o‘zlariga ishonchni shakllantiradilar. Agar ular o‘zini samarali his qilsalar, mehnatsevarlikni rivojlantiradilar. Agar ular doimiy ravishda muvaffaqiyatsizlikka uchrasalar yoki ularning urinishlari qadrlanmasa, ular o‘zlarining qobiliyatsizliklari haqida ko‘proq o‘ylashadi va ishonchsizlikni his qilishadi.

Olimlarning nazariyalari shuni ko‘rsatadiki, 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashda faqat bitta yo‘nalishga (masalan, faqat o‘qish-yozishga) e’tibor qaratish yetarli emas. Bolaning: kognitiv (aqliy) rivojlanishi (diqqat, xotira, tafakkur, nutq) Vigotskiy va Piaget nazariyalari asosida rivojlantirilishi kerak. Buning uchun o‘yin va konkret faoliyatlar muhim. Ijtimoiy-hissiy rivojlanishi va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari ham asosiy o‘rinda turishi lozim. Bu bolaning maktab muhitiga moslashuvi va o‘ziga ishonchini shakllantiradi. O‘quv faoliyatiga oid ko‘nikmalar ham sistematik ravishda shakllantirilishi kerak. Ilmiy nazariyalarga tayangan holda tuzilgan tayyorgarlik dasturlari bolaning maktabga nafaqat intellektual, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham to‘la tayyor bo‘lib kirishini ta’minlash tadqiqot davomida o‘rganildi.

## 2-jadval

### 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashning psixologik va pedagogik jihatlari

Psixologik jihatlar	Pedagogik jihatlar
-idrok va diqqatning rivojlanishi; -xotira va tafakkurning rivojlanishi; -nutq rivoji; -iroda va o‘zini boshqarish; -ijtimoiy-emotsional rivojlanish va muloqot; -motivatsiya (o‘quv motivatsiyasining shakllanishi);	-o‘yin faoliyatining pedagogik mexanizmi; -tizimli mashg‘ulotlarning pedagogik asosi; -ijodiy faoliyatlarning pedagogik roli; -tarbiyachi-pedagogning roli hamkorlik (ota-ona, psixolog, pedagog);

5-7 yosh bolaning hayotida muhim bosqich bo‘lib, bu davrda uning psixologik va pedagogik jihatdan maktabga tayyorligini ta’minlash bolaning kelgusi o‘quv

<sup>12</sup> Bolaning mustaqil ravishda (hech qanday yordamsiz) biror vazifani bajara oladigan darajasi bilan, kattaroq tajribali shaxsning (o‘qituvchi, ota-ona, tengdosh) yordamida va yo‘l-yo‘riqlari ostida bajara oladigan darajasi o‘rtasidagi masofa yoki imkoniyatlar doirasi

<sup>13</sup> Bolalar voqelikda mavjud bo‘lgan yoki ular bilan bevosita aloqada bo‘la oladigan "konkret" narsalar va hodisalar haqida mantiqiy fikrlashni boshlashga yo‘naltirilgan haqiqiy vazifalarni bajarish jarayoni

faoliyati va shaxsiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot davomida o'rganildi. Mazkur psixologik jihatlar maktabga tayyorgarlik jarayonini tashkil etish uchun asos bo'lsa, pedagogika bu jarayonni amalga oshirishning usullari va vositalarini taqdim etadi (2-jadvalga qarang).

5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashning psixologik-pedagogik jihatlari shundan iboratki, bu davrda bolaning kognitiv (aqliy), hissiy-irodaviy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini bir butunlikda, uzviy ravishda ta'minlash zarur.

Dissertatsiyaning **“5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida 5-7 yosh bolalarni maktab ta'limiga kompleks tayyorlashning asosiy yo'nalishlari, zamonaviy usullar asosida 5-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorligini baholash metodikasi, “Ilk qadam” o'quv dasturi asosida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning takomillashtirilgan modelining mazmuni, shakl, usul va yo'llari ilmiy nazariy yoritilgan bo'lib, ushbu guruh tarbiyalanuvchilarining kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi yondashuvlar hamda uslubiy tavsiyalar yoritilgan.

Tadqiqot davomida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayoni kompleks yondashuvni talab etishi nafaqat aqliy tayyorgarlik, balki bolaning psixologik, ijtimoiy, emotsional va jismoniy rivojlanishini ham qamrab olishi lozimligi o'z isbotini topdi. Quyida ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlari keltirildi:

- **aqliy tayyorgarlik (kognitiv rivojlanish)** - bu yo'nalish bolaning maktabda o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan bilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bular: diqqat, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirish, atrof-olam bilan tanishuv, o'qish va yozish va matematik tushunchalarga tayyorgarlik;

- **psixologik tayyorgarlik** - bu yo'nalish bolaning maktab muhitiga psixologik jihatdan moslashishi, yangi ijtimoiy rol - o'quvchi rolini qabul qilishi bilan bog'liq. Bular: o'quv motivatsiyasini shakllantirish, iroda sifatlarini rivojlantirish, emotsional barqarorlik, o'zini anglash va o'ziga ishonch;


- **ijtimoiy-komunikativ tayyorgarlik** - bolaning jamiyatda va maktab jamoasida o'zini tuta olishi, muloqot qila olishi bilan bog'liq. Bular: muloqot ko'nikmalari, jamoadagi o'rinni anglash, o'quvchi rolini qabul qilish;

- **jismoniy tayyorgarlik** - bu yo'nalish bolaning maktab mashg'ulotlariga dosh bera oladigan darajada jismoniy sog'lom bo'lishini ta'minlaydi. Bular: umumiy jismoniy rivojlanish, mayda motorikani rivojlantirish, sog'lomlashtirish.

Yuqoridagi yo'nalishlarning har biri o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Kompleks tayyorgarlik bolaning maktab hayotiga muvaffaqiyatli kirib borishi, o'quv jarayonidan zavqlanishi va o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda samarali natijani ta'minlashi tadqiqot asosida isbotlandi.

Ma'lumki, bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini baholash aniq maqsadga yo'naltirilgan, tizimli jarayon hisoblanadi. Bunda maktabgacha yoshdagi, xususan, maktabga tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limiga umumiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar, umumiy tayyorgarlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik, fiziologik, ijtimoiy aspektlarini o'rganish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oila va maktabning mazkur jarayondagi

imkoniyatlari diagnostikasi xulosalariga tayanib, 5-7 yoshli bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligi quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi (1-rasmga qarang).



### 1-rasm. 5-7 yoshli bolalarining maktab ta'limiga tayyorlash bosqichlari

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, tadqiqot davomida maktabga tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limiga tayyorgarligini shakllantirish va baholash jarayoni modelini ishlab chiqish va uni nazariy jihatdan asoslash vazifasiga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot davomida bir qator ijodiy-jozibador loyihalar asosida turli mashqlardan foydalanish, bolalarni maktabga tayyorligini aniqlash mashg'ulotlari tashkil etildi.

**“Quvonchni baham ko‘rish” - ijobiy hissiyotlarni ijtimoiy jihatdan ifodalash:**


**Maqsad:** Boshqalar bilan quvonchni baham ko‘rish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda hissiyotlarni nazorat qilish.

**Mashq:** Guruhda biron bir bolaning yutug‘i (masalan, qiziqarli rasm chizgani, yangi narsa o‘rganganligi) uchun uni tabriklash. Boshqa bolalardan ham o‘z quvonchlarini yoki do‘stlarining yutuqlaridan xursand bo‘lganliklarini ifodalashlarini so‘rash.

**Baholash:** Bola boshqalarning yutuqlaridan xursand bo‘la oladimi? U o‘z quvonchini ijtimoiy jihatdan to‘g‘ri ifodalay oladimi?

Baholash tamoyillari: kuzatuv, suhbat, amaliy natijalar, individual yondashuvga asoslanish.

Ushbu kabi mashqlar 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik – psixologik imkoniyatlari jismoniy, aqliy ijtimoiy-emotsional, bilish qobiliyatlari kabi xususiyatlari baholovchi shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilashga yordam berdi. Tarbiyachilarga bolalarning hissiy dunyosini chuqurroq tushunish, ulardagi muammolarni aniqlash va ularni rivojlantirishga yordam berdi va bu 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta'lim modelida quyidagicha aks etdi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim modeli.**

Mazkur 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim modeli quyidagilarni o‘zida aks ettiradi:

Asosiy bosqichlar: Mexanizm asosiy bosqichlardan iborat bo‘lib, ular ketma-ket va o‘zaro bog‘liq tarzda amalga oshiriladi.

1. Dastlabki tashxis va baholash bosqichida bolaning maktabga tayyorgarligining hozirgi holati aniqlanadi: aqliy va emotsional-irodaviy sohalardagi rivojlanish darajasini aniqlash; o‘yin va mashg‘ulotlar jarayonida bolaning o‘zini tutishi, muloqot ko‘nikmalari, qiziqishlari kuzatiladi; bolaning sog‘lig‘i, jismoniy rivojlanishi haqidagi ma’lumotlar (shifokor tavsiyalari); bolaning uy hayoti, odatlari, qiziqishlari haqida ma’lumot olish.

2. Rivojlantirish va tayyorgarlik bosqichida: kognitiv qobiliyatlarni o‘stirishga qaratilgan mashg‘ulotlar; sog‘lomlashtirish va motor ko‘nikmalarini rivojlantirish; muloqot, o‘zini boshqarish, mustaqillikni shakllantirish; axloqiy norma va qadriyatlarni singdirish.


3. Tayyorgarlik jarayonini tashkil etish va amalga oshirish bosqichida: har bir rivojlanish sohasi uchun moslashtirilgan o‘yinlar va mashg‘ulotlar (didaktik, ijodiy, harakatli); bolaning yoshi va rivojlanishiga mos materiallar, qulay makon; uch tomonlama hamkorlik orqali jarayonning samaradorligini oshirish; mutaxassislar maslahati, ota-onalar uchun tavsiyalar; har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish.

4. Erishilgan natijalarni baholash va korreksiyalash bosqichida: jarayon davomida bolaning rivojlanishini kuzatib borish; tayyorgarlik oxirida natijalarni aniqlash; aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun qo‘shimcha tadbirlar; keyingi bosqichlar (maktab ta’limi) uchun tavsiyalar tayyorlash; baholash natijalari asosida dastlabki tashxis va rivojlantirish bosqichlarini yanada takomillashtirish. Bu model integratsiyalashgan yondashuvning muhimligini ko‘rsatadi, bunda har bir element bir-birini boyitib, bolaning maktabga tayyorgarligini maksimal darajada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy usullar asosida 5-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorligini baholash, bolaning psixologik, intellektual va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini har tomonlama o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi kerak. An’anaviy testlardan tashqari, o‘yin shaklidagi baholash usullari va kuzatishlar keng qo‘llaniladi. Baholash quyidagi sohalarni qamrab olishi maqsadga muvofiq (3-rasmga qarang).



**3-rasm. 5-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorligini baholash sohalari**

Tajriba-sinov jarayonidagi kuzatuv hamda mashgʻulotlarga asoslangan holda tadqiqotning baholash sohalari “**Refleksiv yondashuvli platforma asosidagi model**”dan foydalanish orqali aniqlandi (4-rasmga qarang).



**4-rasm. Refleksiv yondashuvli platforma asosidagi model<sup>14</sup>**

5–7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida refleksiv yondashuvli platforma bolaning individual rivojlanish surʼati, shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olgan holda, ularning ehtiyojlari, emotsiyalari hamda niyatlarini uygʻun tarzda rivojlantirishga yoʻnaltiriladi. “Mening ehtiyojlarim, emotsiyalarim, niyatlarim refleksiv yondashuvli platformasi”dan foydalanuvchilar oʻz ichki dunyosini tushunish, oʻz his-tuygʻularini boshqarish, maqsadlar qoʻyish va muvaffaqiyatga erishish orqali shaxsiy rivojlanish va hayot sifatini yaxshilashga muayyan darajada erishadilar.

“Mening ehtiyojlarim, emotsiyalarim, niyatlarim” refleksiv yondashuvli platformadan foydalanishning asosiy **vazifalari**: oʻz-oʻzini baholash; emotsiyalarni identifikatsiya qilish va tahlil qilish; niyatlarni aniqlash va maqsadlar qoʻyish; shaxsiy rivojlanish yoʻllarini ishlab chiqish; refleksiya va oʻzgarishni ragʻbatlantirish; stressni boshqarish va emotsional holatni tartibga solish; munosabatlarni yaxshilash va muloqot koʻnikmalarini rivojlantirish; maʼlumotlarni toʻplash va kuzatuv olib borish; qoʻllab-quvvatlash va yoʻl-yoʻriq koʻrsatish.

“Mening ehtiyojlarim, emotsiyalarim, niyatlarim” usulidan foydalanishning afzalliklari:

- emotsional intellekt: bolalarni oʻz his-tuygʻularini tushunish va boshqalar bilan munosabatlarni shakllantirishda yordam beradi.

<sup>14</sup> Mualliflik yondashuvi

- ijtimoiy ko‘nikmalar: bolalar o‘z fikrlarini muhokama qilish orqali ishtirok etish va boshqalarni tinglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- hissiyotlar: o‘z ehtiyojlari va his-tuyg‘ularini aniqlab, bolalar o‘z fikrlarini erkin ifodalashga yordam beradi. Natijada, bolalarda emotsional va ijtimoiy rivojlanishni rag‘batlantiradi, shuningdek, ularning maktabda muvaffaqiyatli ijtimoiy va akademik hayotga tayyorgarligiga imkoniyat yaratiladi.

Dissertatsiyaning “**Pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni, uni tashkil etish metodikasi va olingan natijalar bayon qilingan. Mazkur tadqiqot bo‘yicha tayyorlov guruhi bolalari nazorat va tajriba guruhiga bo‘lindi. Nazorat guruhida jami 304 nafar va tajriba guruhida 328 nafar maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 5-7 yoshli tarbiyalanuvchilaridan iborat bo‘ldi (3-jadvalga qarang).

**3-jadval**

**Tajribada ishtirok etgan tarbiyalanuvchilar**

MTT	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Buxoro	120	110
Navoiy	108	100
Qashqadaryo	100	94
<b>Jami</b>	<b>328</b>	<b>304</b>

Shu maqsadda K.Pirsonning  $\chi^2$  mezoniga muvofiq tajriba va nazorat guruhlari tarbiyalanuvchilarining birinchi bosqich yakuniy ko‘rsatkichlari bilan ikkinchi, uchinchi va yakuniy bosqich ko‘rsatkichlari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan nazorat turlari quyidagi jihatlarni e‘tiborga olgan holda aniqlandi. Bular: bolaning rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yordam berish; pedagogik jarayonning samaradorligini baholash va uni takomillashtirish; bolaning maktabga moslashuvini osonlashtirish; ota-onalarga farzandlarining tayyorgarlik darajasi haqida ma’lumot berish (4-jadvalga qarang):

**4-jadval**

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha o‘tkazilgan nazorat turlari**

Baholash turlari	umumiy ball	Baholash mezoni		
		Yuqori	O‘rta	Past
